

“TO’Y NONI” HIKOYASI HAQIDA

Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi
Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Ismoil Ollaberganning “ To’y noni ” hikoyasi asosiy qahramonlarining xarakter xususiyatlari tahlili, hikoyadan anglashiladigan mazmun hamda asar xulosasi yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: bosh qahramon epizotik obraz, taqdir, sabr timsoli, asar mazmuni, yozuvchi is’tedodi.

Аннотация: В статье проводится анализ черт характера главных героев рассказа Исмаила Оллабергана «Свадебный хлеб», смысл рассказа и заключение произведения.

Ключевые слова: эпизодический образ главного героя, судьба, символ терпения, содержание произведения, воля писателя.

Annotation: The article describes the analysis of the character traits of the main characters of Ismail Ollabergan's story "Wedding bread", the meaning of the story and the conclusion of the work.

Key words: episodic image of the main character, fate, symbol of patience, content of the work, writer's will.

Hamмамizga ma’lumki, azal-azaldan Xorazm buyuk ijodkorlarga, isde’dodli shoir-u yozuvchilar, turli sohalarning yetuk kashfiyotchilariga boy zamindir. Shunday Turonzamin vohamizning yana bir iste’dodli vakillaridan biri Ismoil Ollabergandir. Adabiyotning turli janrlarida muvaffaqiyat bilan qalam tebratgan ijodkor tilining shiradorligi, o’zining asarlarida serjilo ma’nolar ifodasini ko’rsatganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ismoil Ollabergan ijodi turli-tuman she’rlar, hikoya va nars-nazmdagi janrlarga boy bo’lib, uning ijodida “To’y noni” hikoyasi alohida ahamiyatga ega.

Ismoil Ollaberganning mashhur hikoyalaridan biri sanalgan "To’y noni" hikoyasida bosh qahramon Ovodon obrazi orqali berilib, aniq bir voqea sujeti keltirilmasa-da, keng ma’no ochib berilgan.

Hikoyada voqealar davrlarni almashtirish asnosida, ya’ni har xil davrda bo’lgan voqealarni bayon qilish asosida kechadi. Binobarin, asar boshlanishida Ovodonning turmushga chiqib, oilali bo’lgan paytlari tasvirlansa, birdaniga uning qizlik paytlariga qaytiladi. Hikoyada Ovodon taqdiri misolida hayot haqiqatlari ko’rsatib beriladi, bu esa qizning ichki kechinmalari, o’y-xayollari orqali tasvirlangan.

"To’y noni" hikoyasida asosiy mazmun shundan iboratki, inson o’zi uchun berilgan taqdirga doim rozi bo’lib yashashi, barchaning hayotida yaxshi kunlar ertami,

kechmi baribir bo'lishi, faqat kimdir sabr bilan uzoq kutishi, yana kimdir esa oson erishishi, umidini uzmagani, yaxshi kunlarning, baxtli onlarning bo'lishiga ishonganlar buning ro'yobini, albatta, ko'rishlari hikoya mazmunini tashkil etgan. Yozuvchining bu asaridagi har bir jumla insonni o'yga toldiradi, unga qandaydir sokinlik his qildirib, xulosa chiqarishga undaydi, qanday yashash, qay vaziyatda nima qilish lozimligini uqtirmoqchi bo'ladi.

Jumladan, "To'y noni" hikoyasidan olingan quyidagi jumlar fikrimizning isboti bo'la oladi.

Ovodon bir zum ma'yuslanib o'yga toldi. Hayot qiziq, inson ruhiy olami undanda g'aroyib. Hamma uzoq umr ko'rishni istaydi, lekin hech kimni qarigisi kelmaydi.¹

Hikoya go'zal, yosh qiz Ovodonning tasviri bilan boshlanadi. U haqidagi ma'lumotlar yoqimli tarzda berib borilishi bilan kitobxonda qiziqish uyg'otadi, qahramonlar bilan bo'layotgan suhbat sirlilikni, asardagi yashirin nimanidir ochib, aniqlashtirib boraveradi.

Uning bo'rtib chiqqan nimpushti yanoqlari oppoq chehrasiga tengsiz tarovat bag'ishlaydi. Sal jilmaysa, peshonasida yulduz balqib, kulgichlariga oy sho'ng'iydi. Tabiat bor hafsalasini ishga solib yaratgan bu sohibjamolning ko'rkiga mahliyo bo'lmasdan iloj yo'q. Durkun vujudini sirib turgan ponbarxat xalatga, timqora baxmalday mayin soch turmagiga jilovlanib turgan shokilali sochbezakka rashking keladi kishi. Uning sirga to'la beozor ko'zlariga boqqa chog'da har qanday yigitning ham yuragi jizillab ketadi.²

Bu tasvirlar orqali Ismoil Ollabergan butun o'zbek qizlarining suratini chizganday bo'ladi go'yo.

"To'y noni" hikoyasida o'zbek millatining o'ziga xos an'analari va urf-odatları ham ochib berilgan. Masalan, o'zbeklarda har bir qiz bo'yi yetishi bilan turmush qurishi lozimligi. Yevropada qizlar xohlashsagina, o'zlari istagan paytda oila qurishlari mumkin, ammo o'zbek millatida bu aniq bir davrga moslashib qolgan. Aslida bu to'g'ri, chunki asarda ham keltirilgani kabi qiz o'z uyiga mehmon bo'ladi, u o'z o'rnini, o'zining asl uyini vaqtida topib, shu yerda yashashi kerak.

Qizning tomog'iga achchiq bir nima tig'day qadaldi, uzoq yili sanatoriyada tanishgan qozoq dugonasi Baxtigulning qushlar haqidagi mungli qo'shig'i esiga tushdi:

Tuqqan jerg'a, tuqqan jerg'a

Sig'may ketib, sig'may ketib bora-di-i...³

Aks holda, boshqalarning halovatini buzayotgandek tuyiladi go'yo. Xuddi hikoya qahramoni Ovodon kelinoyisiga gapirish uchun mavzu bo'lgani kabi. Bundan tashqari, Ovodondagidek tuyg'ular, yolg'izlik inson qalbini o'rtay boshlaydi. Inson zoti borki, kimgadir kerakligini, u ham kimningdir muhtoj insoni ekanligini his qilib

¹ "O'zbek adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2012-yil, 16-son.

² "O'zbek adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2012-yil, 16-son.

³ "O'zbek adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2012-yil, 16-son.

yashagisi keladi, shuning uchun ham faqat ish yoki o'qish bilangina haqiqiy baxtga, ruhiy tinchlik va hotirjamlikka erishib bo'lmaydi, hayotda har inson o'zining o'rnini topa bilishi lozim.

Asar voqealari davomida insonning tashqi ko'rinishi qanday bo'lmasin, unga yordam berolmaydi, faqat o'z taqdiriga bitilgan, u uchun atalgan baxtigina ahamiyatli ekanligining guvohi bo'lamiz. Ya'ni Ovodon go'zallikda tengsiz, har qanday kishini o'ziga jalb qila oladigan husn egasi edi, ammo uning baxti tengdoshlarinikidan ancha keyin, o'ttiz yoshga yetay deb qolganida qarshisidan chiqdi. Hikoyada bu shunday beriladi:

Bu dunyoning ishi ham qiziq, arqog'i o'roviga mos kelmaydi. Chalpakka o'rab tashlasang, it qaramaydigan qizlar egalik bo'lib ketishdi. Ko'pida bir etak bola...⁴

Hikoyada qo'llangan epizotik obrazlar ham uning mazmuniga yangicha bir ruh bag'ishlagan. Jumladan, Durxi momo, ya'ni Ovodonning onasi. Bu obraz ham asarda o'zining sabri, o'zbek onalariga xos bo'lgan matonati bilan ajralib turadi. Quyidagi Durxi momo nutqidan olingan parchalarda buni ko'rish mumkin.

- Tomoshayor egamdan aylanay! Sening ham manglayingga yozgani bordir, axir, bolam! Xudoyim hech kimni toq yaratmagan. Ilon- chayonlarni ham jufti bo'ladi.

- Unday dema, qizim! Farishtalar yaxshi niyat qilsang, darrov yozib oladi. Yomon niyatni esa zora bu niyatidan qaytsa, deb yozmasdan turarmishlar. Senga ham atagani bordir, axir!?⁵

Shunindek, "Molda jon, nonda imon" degan gapni og'zidan qo'ymaydigan Kenja bobo obrazi, chillak o'ynayotgan beqayg'u bolalar tasviri, "To'y noni ber, to'y noni" deya ko'chalarda aylanib yuruvchi Tolpush jinni obrazi ham asarda qandaydir o'zgachalik va zavq bag'ishlab turadi.

"To'y noni" hikoyasida sabr qilgan inson oxiri baxtiga erishishi, har qanday vaziyatda ham o'z taqdiriga ko'nika bilishi ortidan go'zal hayot uni qarshilashi ochib berilgan. Ovodon ham unga kelinoyisi tomonidan qarata aytiladigan gaplarga e'tibor qilmaydi, janjallashmaslik uchun ko'ngliga yaqin olmaslikka harakat qiladi. Hikoyada bu qiz obrazini sabr timsoli deyish mumkin.

"To'y noni" hikoyasi o'zidagi go'zal tasvir kuchi va g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk darajadali bilan kitobxonlar ko'nglidan joy ola bilgan hamda shu bilan Ismoil Ollabergan Xorazm vohasining yana bir o'tkir qalam sohibi, iste'dod egasi ekanligini ko'rsatib bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbek adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2012-yil, 16-son.

⁴ "O'zbek adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2012-yil, 16-son.

⁵ "O'zbek adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2012-yil, 16-son.